

PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR - DARS SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA

*Salieva Perdexan Alimbetovna,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumot zamonaviy pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida samarali foydalanish va ularning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Pedagogik texnologiya, texnologiya, ta'limiyy texnologiya, "Har kim har kimga o'rgatadi", "Sinkveyn", "Tarmoqlash" (Klaster).

PEDAGOJİK TEKNOLOJİLER - DERS VERİMLİLİĞİNİN ÖNEMLİ OLARAK

*Salieva Perdehan Alimbetovna,
Karakalpakstan Cumhuriyeti, Öğretmenlik becerisi merkezi kıdemli öğretmeni*

Özet. Bu makalede, modern pedagojik teknolojiler hakkında bilgi, ders sürecinde modern pedagojik teknolojilerin etkili kullanımı ve önemi hakkında bilgi verilecektir.

Anahtar kelimeler. Pedagojik teknoloji, teknoloji, eğitim teknolojisi, "Herkes herkese öğretir", "Sinkveyn", "Ağlanma" (Kümelme).

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКА

*Салиева Пердехан Алимбетовна,
старший преподаватель Центра педагогического мастерства
Республики Каракалпакстан*

Аннотация. Данная статья содержит информацию о современных педагогических технологиях, эффективном использовании современных педагогических технологий на занятиях и их значении.

Ключевые слова. Педагогическая технология, технология, образовательная технология, "Каждый всех учит", "Синквейн", "Семь" (Кластер).

PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AS AN IMPORTANT FACTOR OF LESSON EFFECTIVENESS

*Salieva Perdehan Alimbetovna,
Republic of Karakalpakstan
senior lecturer of the Center for pedagogical excellence*

Abstract. In this article, we discuss modern pedagogical technology, effective use of modern pedagogical technology in lessons, and conclusions.

Keywords. Pedagogical technology, technology, educational technology, "Everyone teaches everyone", "Sinkway", "Networking" (Cluster).

"Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoҳ domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta

oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak". Sh.M.Mirziyoyev.

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lism tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishlariga bog'liq. Bu mas'uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'z kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalar mohiyatini anglash va ulardan o'z darslarida unumli foydalanishni taqozo etadi. Ta'lism jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lism sifat samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda ta'lism jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarning o'rni va ahamiyati benihoya kattadir. Innovatsiya (ingl.innovation-kiritilgan yangilik, ixtiro)-yangilanishni, o'zgarishni amalda joriy etish jarayoni va faoliyatni.

Ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va doiralarda qo'llanishini aks ettiradi. "Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari mavzusidagi respublika miqyosida amaliyotda "pedagogik texnologiya", "ta'limi texnologiya" va "ta'lism berish texnologiyasi" kabi atamalarning keng qo'llanishi kuzatilmoqda. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi, nima ajratib turishini tushunish uchun, "texnologiya" va uning kelib chiquvchilari: "texnologik jarayon", "texnologik harakat", "texnologik xarita", "texnologik tartib" tushunchalarining mohiyatini aniqlash lozim.

"Texnologiya" – yunoncha "techne"-mahorat, san'at, malaka va "logos"-so'z, ta'lismot ma'nosini bildiruvchi so'zlarni anglatadi.

Ta'lism texnologiyasi: mavjud sharoit va belgilangan vaqtida muayyan ta'limiylar maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta'minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo'l hamda o'qitish vositalarining tartibli yig'indisi (ta'lism berish texnologiyasining jarayonbayonli jihat); bu yuzaga kelgan ta'limiylar jarayon subyektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta'lism berish texnologiyasining amaliy jarayoni) tartibi.

"Pedagogik texnologiya"-pedagogik hodisa va ta'lismi texnologiyalashtirish sohasida qo'llaniladigan tushuncha. Fanni o'qitish uslubiyati – ta'lism tizimida mazkur o'quv fanining ahamiyati va o'rnini belgilaydi, uning vazifalarini, o'qitish mazmunini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanayotgan usul, shakl hamda o'qitish vositalari bayonini o'z ichiga oladi. Fanni o'qitish uslubiyatidan farqli texnologiyasi:

"Qanday o'qitish kerak?" degan savolga javob bermay, balki ahamiyatli qo'shimcha bo'lgan natijaviy "Qanday o'qitish va o'quv jarayonini qanday qilib eng maqbul tashkil etish kerak?" degan savolga javob beradi; aniq sharoitlardan kelib chiqqan va ma'lum natijaga yo'nalgan aniq pedagogik g'oyaga loyihamanadi; o'z natijalarini qayta ishlab chiqarishi bilan farqlanadi;

ta'lism oluvchilar va ta'lism beruvchiga yo'natirilgan darsning uslubiy ishlanmalaridan farqli o'laroq, ta'lism olishda ular o'z faoliyatlarini hisobiga yutuq ta'minlanishiga yo'naltiriladi. Berilgan mavzu bo'yicha ta'lism texnologiyasining tuzilishi va mazmuni: Aniq fan va mavzu bo'yicha mashhg'ulotning ta'lism modeli jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi: dastlabki ma'lumotlar: o'quv mavzusi, vaqt, o'quvchilar soni;

(yangi ma'lumot beruvchi dars, o'tilganlarni takrorlovchi dars, umumlashtiruvchi dars) va ko'rinishi (masalan, muammoli, mustaqil ishslash va boshq.), o'quv mashhg'uloti rejasi(tuzilishi)

O'qituvchining innovatsion faoliyati bilan bog'liqli yangi ta'limi vazifalar, zamonaviy talablar, o'qituvchining pedagogik mahoratiga, uning kasbiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlariga bir qator vazifalarni yuklaydi. Ta'limi jarayonning muhim komponentlaridan biri o'qituvchilarning innovatsion faoliyati bo'lib, uning bu yo'nalishdagi faoliyatini muntazam tarzda takomillashtirib borish pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri.

O'zbekistonlik olimlardan O.D.Raximov o'zining "Ta'lism sifati – hayot sifati" nomli monografiyasida ta'lism sifati va baholash mezonlari, ta'lism standartlari, chet el va O'zbekiston oliv ta'lism tizimida ta'lism sifati va uni baholash tizimi, ta'lism sifatini ta'minlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya hamda innovatsiyon pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish usullarini keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan olimlar tomonidan sifat tushunchasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda, ta'lism sifatiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin. Ta'lism sifati – bu butun ta'lism tizimiga nisbatan o'rnatilgan talablarning bajarilishini ta'minlash orqali samarali atijalarga erishishdir. Ta'lism sohasida sifatni nisbiy tushuncha tarzida unuig ta'lism standartlariga yoki tasniflarga hamda iste'molchi talablariga moslik darajasi deb qarashimiz mumkin.

Hozirgi kunda zamonaviy olimlar ta'lism sohasida sifatni turli jihatlarda – o'qitiladigan fanga xos muhim xususiyatlarning funktsional birligi sifatida ham, o'zaro bir-biri bilan uzbiy bog'langan xususiyatlar to'plami sifatida ham, muayyan tuzilmaga ega bo'lgan tizim ko'rinishidagi narsaning yaxlit tafsifi sifatida ham talqin qilmoqdalar. Shuningdek, bu jarayonda boshlang'ich sinflarda o'qituvchilar tomonidan malaka oshirish davrida olib borilgan o'quv mashg'ulotlarining bevosita ta'lism amaliyoti bilan integratsiyasi hamda kelgusi innovatsion faoliyatida o'rganilgan ta'lism metodlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va mazkur jarayonga zamonaviy usullarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar, o'quv mashg'ulotlarining yaxlit metodikasi ishlab chiqildi hamda amaliyotda sinab ko'rildi.

Shu tariqa shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda quyidagi metod hamda usullardan foydalanildi: "og'zaki tushuntirish", "plakatlardan foydalanish", "taqdimot", "multimedia", "elektron doska", "innovatsion pedagogik texnologiyalar" va hokazo tarzidagi an'anaviy, "o'z-o'zini boshqarish", "mustaqil fikrlash" singari noan'aviy hamda "Assesment" texnikasi, "Sinkveyn", "Insert", "Pindvoard" kabi interfaol metodlarni qo'llashimiz mumkin.

O'quv-materiallari imkoniyatlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyat-larga ega ekanligi bilan ajralib turdi. O'quv materiallарini o'rganishning boshlang'ich payti malaka oshiruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchilari mutaxassislik blokida keltirilgan har bir modullar bilan oldindan tanishib chiqish, uning mazmuni borasida o'qituvchilarda tasavvur hosil bo'lishi uchun, avvalo, o'qituvchining o'zidagi nazariy bilimlarni aniqlab olish nazarda tutildi. Shu jihatdan dastlabki biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ya'ni har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim, ko'nikma va malakalar hosil bo'lishiga qanday yondashuvlar asosida ta'lismni boshqarishlari o'rganildi. Buning ahamiyati shundaki, malaka oshirish jarayonida yangi bilimlar majmuini tinglovchilarga o'rgatish belgilab olingan holda, ularni kelgusi innovatsion faoliyatga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali ijobiy natijalarga erishildi. O'rganilayotgan modullar mazmuni tinglovchilarga turli xil ko'rinishlarda amaliyotga tatbiq etildi. Masalan, so'zlab berish – so'zlab berilganda, tinglovchilar o'rganilayotgan modullarning maqsadi, uning ahamiyatini tushunib olishlari kerak, suhbat ularda o'z kasbiy faoliyatlarini qiyosiy tahlil qila olishlari hamda o'rganilayotgan modul mavzusiga qiziqish uyg'otishga va bu bilan modul mavzularini o'zlashtirish, o'z faoliyatlarida keng qo'llashlarida modul mazmunining detallarigacha bo'lgan nazariy bilimlarni tinglovchilar tomonidan egallashlari lozim. Suhbatda mazkur modul mavzulari haqida, uni amalga oshirish chog'idagi har bir fanning ahamiyati, unda ta'lism beruvchi va ta'lism oluvchiga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot berilishi kerak.

Namoyish etish ikki aspektda amalga oshiriladi. Birinchidan, tinglovchilarga har bir modul mavzusini mukammallashgan ko'rinishda namoyish qilish (umumiyl ko'rinishdagi faoliyat, ya'ni taqdimot, multimedia, video proektor, video roliklar ko'rsatiladi). Bu esa tajribali o'qituvchi vazifasini bajarib, cheklanmagan tushuntirishlar, sanoqsiz takrorlashlar, eslatishlarga imkon beradi. Bu vositalar yordamida mashg'ulotlarning tashkil etilishi ta'lism oluvchining intellektual salohiyati,

ijodiy qobiliyati va har xil axborot manbalari bilan ishslash mahorati kabi sifatlarini rivojlantirib, o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

O'rnatishning qaysi bir bosqichi xususiyatiga mos kelishiga qarab unga amal qilish kerak. Bu o'rinda o'quv adabiyotiga qo'yiladigan ilmiylik, tizimlilik, o'quv materialini tushunarli va ravon tilda bayon qilish kabi talablarni ta'minlash, shuningdek, samarali pedagogik usullar sifatida e'tirof etilgan muammoli o'qitish, jamoaviy tafakkur faoliyatini tashkil etish kabi jihatlarni ro'yobga chiqarish alohida ahamiyatga ega. O'quv materialini chuqur o'zlashtirish uchun uni ayrim muhim nazariy bo'limalar, batafsil ishlab chiqilgan o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarini mazmunan va vaqt bo'yicha yagona tizimga mujassamlashtirgan, maqbullashtirilgan va yo'naltiruvchi tusdagi o'quv dasturi, amaliy mashg'ulot materiallari to'plami, mustaqil ishslash uchun topshiriqlar, ularni yechish bo'yicha metodik ko'rsatmalar, nazorat savollari, testlar va ularning javoblari, fan bo'yicha eng ko'p ishlatiladigan asosiy tushuncha va atamalarning izohli lug'ati, u yoki bu masalalar chuqur yoritilgan adabiyotga havolalar ko'rinishida tarkibiy bo'laklarga ajratish, bu bo'laklarning majmuuni shakllantirish va shu tariqa o'quv jarayonida bilvosita dialog ish rejimini tashkil etish, boshqacha qilib aytganda, faol pedagogik muhit yaratish ham zarur bo'ladi. O'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashga qo'yilgan topshiriqlarni bajarish vaqtida o'qituvchilarning har bir modul mavzulariga munosabatlari, qiziqishlari kuzatiladi. Kuzatish natijalari shuni ko'rsatadiki, ularning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashlarida qo'llanilgan yangi metod hamda usullardan foydalanish o'ziga xos o'rin tutadi. O'qituvchilar o'rganilayotgan modullarning xususiyatlarini anglashga faol qiziqmayotganligi ularning xatti-harakatlarida sezilib turdi. Biroq, o'quv mashg'ulotlari jarayonining zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish asnosida o'qituvchilarning faolligi va qiziqishlari oshib bordi.

Malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda o'quv mashg'ulotlari haqida yetarli tasavvurga ega bo'lish, kelgusi kasbiy faoliyatida o'zlashtirilgan materiallarni qo'llay olish, har bir o'zlashtirayotgan modul mazmunini, unda keltirilayotgan materiallarni ta'lim amaliyotiga tatbiq qilish, innovatsion faoliyatida hamkasblari orasida zamonaviy yondashuvlar asosida ta'limni tashkil etish, tashabbuskorlikni rivojlantirish ko'nikmalariga e'tibor qaratildi. Malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda o'zlashtirilgan materiallardan tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari qay darajada takomillashganlik darajasiga ham e'tibor qaratildi. O'quv mashg'ulotlari jarayonida ma'ruza mashg'ulotlari bilan bir vaqtida amaliy mashg'ulotlar, ya'ni tinglovchilarning o'z ustida ishslashlariga imkoniyat yaratib berildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida malaka oshiruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchilari mutaxassislik blokidagi modullar mazmunidagi mavzularni anglash borasida bilimlarni egallayotganliklari alohida kuzatildi.

An'anaviy doiradan tashqarida bo'lgan hamda o'qituvchining innovatsion faoliyati bilan bog'liqli yangi ta'limiy vazifalar, o'quv faoliyatining zamonaviy talablari o'qituvchining pedagogik mahoratiga, uning kasbiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlariga bir qator vazifalarni yuklaydi. Ta'lim muassasasining innovatsion faoliyati va o'qituvchining pedagogik innovatsiyalarni (yangiliklarni) ishlab chiqishi hamda amalga oshirishga tayyorgarligi o'quv jarayonida bir-biri bilan bevosita bog'liqdir.

"Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini kuzatish hamda natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning ko'pchiligi o'zlarining tajribasi va malaka darajasidan qat'iy nazar, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi" [2]. Chunki ularda pedagogik faoliyatning ushbu yo'nalishi uchun yetarli tayyorgarlik mavjud emas. Pedagogik kompetensiyadagi mazkur bo'shliqni to'ldirishning eng samarali yo'li, shubhasiz, malaka oshirish jarayonidir.

Innovatsiyalarning asosiy mezoni yangiliklar bo'lib, avvalo ilmiy pedagogik tadqiqot va ilg'or pedagogik tajribalarning qiyosiy-statistik tahlillar asosida ishlab chiqiladigan hamda amalda ijodiy jarayonlarni yangiliklar bilan to'ldirgan holatda samarali ta'limiy natijalarni kafolatlovchi muhitni yuzaga keltirishni maqsad qiladi. Shuning uchun, innovatsiyalar bilan shug'ullanishni istagan o'qituvchi uchun avval ta'lim jarayoniga tatbiq qilinayotgan yangilikning mohiyati, darajasi

va albatta, mazkur yangilikning ta'limi samarasini bashorat qila bilishi lozim. Ayni paytda alohida ta'kidlash joizki, taklif etilayotgan innovatsion yondashuv barcha o'qituvchilar uchun birdek yangilik bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun ham innovatsiyalar muayyan ta'lim muassasasi, muayyan o'qituvchining innovatsion faoliyat ko'rsatishga tayyorgarlik darajasiga ko'ra tavsiya etiladi, ya'ni innovatsiyalarni joriy etish quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: ta'lim muassasasidagi mavjud muammolarning yechimini faol izlash zaruriyati; o'qituvchilar tarkibining ta'lim oluvchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati natijalarini bosqichma-bosqich yangilab borish.

Shunday qilib, muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat innovatsion faoliyatga tayyor bo'lmasdan turib mumkin bo'lmaydi. Davlat ta'lim standartlarini amalga oshirish, o'zlarining pedagogik faoliyatiga yangicha qarashni belgilaydi va o'qituvchini innovatsion faoliyatga o'tishga undaydi. O'qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayonida biz tarkibiy qismdagi miqdoriy va sifatiy o'zgarishlar jarayonini tushunamiz, bu kasbiy mahoratni integratsiyalashgan shaxs tarbiyasi sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 27.08.2019 y. PF-5789 Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2019-y., 06/19/5789/3659-son.
2. Григорева С.Г. Подготовка будущих учителей начальных классов к инновационной деятельности. Авто реф...дисс..к.п.н. – Чебоксары. 2003. – 11 с.
3. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. *JournalNX*, 514-516.
4. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. *Журнал NX*, 1026-1028.
5. Азизовна, Ю.С. (2023). Миллий дастур талаблари асосида узбек тилини ўқитишнинг самарадорлиги. *фан, талим ва амалийот интеграцияси*, 661-664. Получено с <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1256>.